

KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MARIFIY JURNAL

2024, 8-son





Sadirova K.G. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasviriy faoliyatning roli	129
Dusmatov U.B. G'oyaviy tarbiya tizimining qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarining kasbiy xulq-atvori va qarorlar qabul qilishiga ta'siri .132	
Toshkenboyev N.Q. Akademik litsey o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish texnologiyalari.....	138
Abduraxmonova G.A. Media ta'lif tushunchasi: xxi asrda media savodxonlikning ahamiyati.....	143
Bekchonova Sh.B. Hajmli ma'lumotlar (big data), bulutli texnologiyalar (cloud technologies), internet buyumlari (internet of things (iot)) rivojlanishini tahlil qilish asosida milliy ta'lif tizimiga joriy etish	146
Turdimurodova M.M. Inkluziv ta'linda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi takomillashtirish	156
Saidova Z.O. Bola tarbiyasida oilaviy qadriyatlarning o'rni	159
Imamova Ch.Sh. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllanish bosqichlari	163
Shermetova S.T. Mustaqil ish- o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirishda vosita sifatida	166
Ахмедов Б.А., Бекназарова С.С. Повышение эффективности трудоустройства молодых специалистов	170
Салохиддинова Ф.Б. Фуқаролик жамияти институтларининг ўсмирларни мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётига жалб этиши бўйича фаолияти	182
Solieva M. Talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirishning pedagogik shartlari	188
Narmuratov I.N. Rus tili darslari orqali innovatsion texnologiyalarni oliv ta'lif muassasalarida tashkil etish metodikasi	194
Pardayeva M. Bolalarda monologik nutqni ontogenezda shakllanish qonuniyatlari	199
Raxmonov B.N., Raximov X.A. Raqamli ta'lif muhitida talabalarning matematik funksiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	203
Xonnazarova S. Maktab bioloigiya ta'limida o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirishdagi muammolar va hususiy talablar	208
Dehqanova M.G'. Individual ta'lifning natijaviy komponenti	211
Hasanova S.H. Bo'lajak informatika o'qituvchilarida qarorlar qabul qilishni rivojlantirishning pedagogik asosları	214
Pardayev O. Liderlik tushunchalarini texnika oliy ta'lif muassasalarini talabalari orasida tahlili	218
Elova U. Madaniyatlararo kasbiy mahorat tushunchasi ingliz olimlari talqinida	222
Sattorova M. Bo'lajak muhandislarni kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	226
Sharipova Sh.S. Pedagogika kolledj raxbarlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	230
Тригулова А.Х. Значение курса «История полифонии» в профессиональной подготовке магистров педагогических вузов	234
Komolova I.X. Art-pedagogika asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmi	237
Mamaniyazova X.R. Oliy ta'lif muassasalarida zoologiya fanini o'qitishda differentiallashtirish va indiyiduallashtirish texnologiyasidan foydalanish	240
Gulyamov K.M. Amaliy bezak san'ati mutaxassislariga kompyuterda loyihalashni o'rgatish muammolari	244
Nazarova Z.T. "Tarbiya" fani o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyaning rivojlantirishning o'ziga xos sifatları	250
Fayzullayeva Ch.O. Kimyo fanini o'qitishda xayotiy tajribalarning pedagogik mazmuni	255
Qurbanova M.F. O'quvchilarning mustaqil ishslash faoliyatini faollashtirish zarurati	259
Masharipov K.B. Umumiyl o'rta ta'lif maktablari o'quvchilarni kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosida kasb-hunarga yo'naltirish omillar	263
Mukhammadiyeva M.E. Paremiologiya lingvovidaktika va til o'qitish metodikasining ob'yekti sifatida	267

INDIVIDUAL TA'LIMNING NATIJAVIY KOMPONENTI

DEHQANOVA MUBORAKXON G'IYEZIDDIN QIZI CHDPU, MAXSUS PEDAGOGIKA KAFEDRASI O'QITUVCHISI

Annotatsiya: Ushbu maqolada individual ta'larning samarali komponentlaridan biri bo'lgan natijaviylik haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Individual ta'lim, yondoshuv, didaktika, komplekslilik, ustoz-shogird.

Individual ta'limga qator yetakchi davlatlarda o'tgan asrda yo'lga qo'yilgan bo'lib, ayniqsa, kadrlar tayyorlash tizimida o'zining ijobjiy natijalarini namoyon etgan. Jumladan, AQSH, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Fransiya kabi davlatlarda nafaqat oliv ta'limga, balki umumiyoq o'rta ta'limga tizimida individual yondashuvga qaratilgan davlat miqyosidagi ish dasturlari va konsepsiyalari joriy etilgan. Talabalarning o'qishini mustaqil loyihalash, asosiy va chuqurlashtirilgan darajada o'quv fanlarini o'zlashtirish imkonini beruvchi moslashuvchan individual ta'limga traektoriyasini shakllantirish uchun sharoit yaratishi bugungi kunning muhim talabi. Individual ta'limga yo'nalishini shakllantirish deganda biz o'quv davrining dastlabki rejasini tuzish, o'quv natijalarini izchil olish va toplash, erishilgan ta'limga natijalarining shaxsiyahamiyatli maqsadlarga muvofiqligini nomuvofiqligini aniqlash asosida talaba dars jarayonini boshqarishni tushunamiz¹. Talabalarning ta'limga olish samaradorligi ularning ehtiyojlariga mos ravishda o'qishi, o'rganishi, izlanishi uchun yaratilgan

imkoniyatlari bilan bog'liq. Talabaning iqtidori, ta'limga olishga bo'lgan ishtiyoqi individual yondashuv asosida rivojlanib boradi. Individual yondashuvni talabalarning darsdan tashqari izlanishi, ijodiy ishlari, bo'sh vaqtini unumli tashkil etish bilan birgalikda olib borish mumkin. Mazkur komponent doirasida talabalar erishgan natijalarni tahlil etish vazifalari amalga oshiriladi. Nega bu komponent bizning tadqiqotimizda alohida tanlandi? Talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari asosida baholanadi. Bizning tadqiqotimizda talabalarning o'z o'zini nazorat qilishi va baholashi nazarda tutildi. Individual ta'limga har bir yondashuv talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashni ko'zda tutadi. Shu bilan bir qatorda, ta'limga oluvchilardan o'quv materiallari bilan ishlash, mashqlar bajarish talab etiladi. Didaktik jihatdan qulay sharoitlarni yaratilgan muhitda talabalarning nazariy bilimlarni mustaqil egallash imkoniyatlari kengayadi. Natijada talabalar o'zlarini kompleks namoyon etishga erishadilar. Talabalarning individualharakalari jamoaviy harakatlarga uyg'unlashadi. Bu uyg'unlashuv har bir ishtirokchida muayyan qobiliyatni yuzaga keltiradi. Chunki talaba jamoaviy harakat natijalarida o'zining ulushi bo'lishini xohlaydi. Aynan shu jarayon talabalarni o'zini o'zi baholashga undaydi. Talabalarda o'zini o'zi nazorat ko'nikmalarini

1 J.E.Usarov "Individual ta'limga trayektoriyasi" Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limga tarbiya berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2024 yil, 11-18 bet.

rivojlantirishda o‘quv jarayonining yaxlitligi g‘oyasiga tayanish lozim. Individual yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida erishiladigan ta’lim maqsadlari haqida N.Surtayeva, Ya.Kamenskiy, R.Safarova, B.Adizov, Sh.Abdullayeva, U.Musayevlarning tadqiqot ishlarida ma’lumotlar keltirilgan. Ularning e’tirof etishlariga ko‘ra talabalar o‘quv jarayoni haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lgan holda axborot olishning turli usul va vositalarini o‘zlashtiradilar. Jumladan, o‘qish, tushunish, kompyuter dasturlari bilan ishslash, yodda saqlash, o‘zlashtirish, ma’ruzalarni tinglash va konseptlashtirish va b.. Bu jarayonda ularda eng zarur ko‘nikmalar shakllanadi. Individual ta’limda talabalarning erishgan natijalarini baholashning quyidagi shakllarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Masalan, o‘quv materialidan o‘zlashtirilgan qism haqida shaxsiy xulosani keltirish. Bunda talabalarning shaxsiy xulosa yasash ko‘nikmalariga e’tibor qaratiladi. Shaxsiy xulosalar o‘zaro baholanadi. Shunda talaba o‘zining faoliyatiga shaxsan baho beradi. Xulosalarning mantiqiyligi, hayotiyligi va kasbiy amaliyatga yo‘nalganligi inobatga olinadi. Talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobat yuzaga keladi. Ular o‘z fikrlarini qayta qurishi va uni asoslashi orqali kasbiy amaliyatga nazariy jihatdan tayyor bo‘ladilar. Sanab o‘tilgan komponentlar doirasida amalga oshiriladigan individual o‘qitishni tashkil etishga ta’sir etuvchi omillarni keltirib o‘tamiz. Ular quyidagilar:

1. O‘quv jarayonida “Ustoz-shogird” tizimini yo‘lga qo‘yish. Bunda talabalarda mavjud akademik bo‘shliqlar va ijtimoiy muammolarning o‘z vaqtida hamda samarali yechim topishiga ko‘maklashuvchi o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Amaliyotda talaba-talabaga ustoz yondashuvi ham o‘zining natijadorligin ko‘rsatgan. Shuning uchun tadqiqot doirasida modullarga oid nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishida faol

talabalarning o‘zlashtirilishida to‘siqlari bor talabalarga biriktirilishi ijobiy natijani ko‘rsatishi aniqlandi. Talabalar o‘rtasida avtoritet ustoz sifatida shakllangan pedagoglarga talabalarning biriktirilishi ham ijobiy ishchi muhitni ta’minalashga xizmat qiladi. Shuning uchun “Ustoz-shogird” tizimi asosida talaba-talaba, talaba-pedagog munosabatlarini o‘rnatish va bu jarayon natijalarini davriy monitoring qilish eng samarali omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

2. O‘quv jarayonida teng imkoniyatlar ta’minlovchi axborot muhiti. Talabalarning o‘ziga xos xususiyatlari turlicha bo‘lsa-da, biroq o‘quv jarayonida teng imkoniyatlar yaratilganligini ular xis qilishi lozim. Bunda imkoniyatlar asosan, o‘quv materiallari taqsimotida, jarayonda ishtirok etishga teng imkon berishda ko‘zga tashlanadi. Talabalar individual yo‘nalgan o‘quv jarayonida faol ishtirokchi bo‘ladi. Ayrim talaba faqat eshituvchi va ayrim talaba faol ishtirokchi sifatida harakatlansa, bu jarayon birinchi talabaga zerikarli bo‘ladi. U o‘ziga ishonmaydi. Pedagog unga e’tibor qaratmagani u uchun oddiy holatga aylanib qoladi. Shuning uchun ishtirokda ham, ta’lim vositalaridan foydalanishda ham har bir talaba o‘z o‘rnini va mavqeini xis qilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. O‘quv jarayoni axborot bilan ta’minalangan bo‘lishi lozim. Shunda talabalarning mustaqil o‘zlashtirish imkoniyati kengayadi. Axborotning turli shakllariga e’tibor qaratish muhim. Ya’ni talabalarning o‘zlashtirish xususiyatlariga ko‘ra axborotlar taqdim etilsa va u bilan ishslash muhiti yaratilsa, nazariy bilimlar oson va qulay o‘zlashtiriladi. Nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi, malakaviy va pedagogik amaliyot davrida talabalarning kasbiy yo‘nalgan faoliyatini samarali tashkil etilishini ta’minalaydi.

3. Mustaqil ta’limi topshiriqlarining nazariy va amaliy faoliyat uyg‘unligida

tayyorlanishi. Bunda o‘quv rejada alohida o‘rin olgan mustaqil ta’limning nazoratsiz va samarasizqolishinioldinioluvchiyondashuvlar qo‘llaniladi. Amaliyotda mustaqil ta’lim uchun berilgan topshiriqlar ma’ruza mashg‘uloti mavzusini shundayligicha takrorlagan holda belgilanishi kuzatildi. Mustaqil ta’lim uchun mavzularning o‘zida talaba bajarishi lozim bo‘lgan vazifa mujassam bo‘lishi maqsadga muvofiq. Aks holda talaba mavzuni o‘qigan zaxoti “bu mavzuni bilaman”- deydi va kerakli harakatlarni amalga oshirmaydi. Masalan, Logopediya moduliga oid ma’ruza mavzusi “Dislaliya nutq nuqsoni ustida ishlash”, amaliy mashg‘ulot mavzusi: “Dislaliya nutq nuqsonini tavsiflash” bo‘lsa, mustaqil ta’lim

topshirig‘iga “Dislaliya nutq kamchiligini boshqa nutq nuqsonlari bilan qiyoslash” ni berish maqsadga muvofiqli. Ixtisoslik modullariga oid mavzularni shu tartibda belgilanishiga e’tibor qaratdik. Talabalarning bajarishi lozim bo‘lgan vazifalari yaqqol namoyon etilishi natijasida ular tomonidan amalga oshirilgan harakatlarni qiyosiy baholash imkonini yaratildi.

Sanab o‘tilgan omillar individual ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Quyida talabalarning akademik-ijtimoiy harakatlarida maqsadga yo‘nalganlikni, tizimli tahlilni va kasbiy yetilishni yuzaga chiqaruvchi tamoyillar sanab o‘tiladi.



Foydalilanigan adabiyotlar:



1. Risqiniso Shomahmudova, Maxsus va inklyuziv ta’lim (Halqaro va milliy tajribalar), O‘quv va metodik qo‘llanmalar, Fan va ta’lim, 2011. Chashma Print.
2. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova, Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. 2022. Zebo-print
3. D.S.Qaxarova, Inklyuziv ta’lim texnologiyasi, O‘quv va metodik qo‘llanmalar, Fan va ta’lim, 2014. Fan va texnologiya
4. Qodirova F.U., Yunusova X.Sh., Inklyuziv va korreksion ta’limning filologik asoslari texnologiyalar , 2022 yil, ZEBO_PRINT
5. Abdullayeva G.S. MAsxus va inklyuziv ta’limda AKT, 2022 yil, ZEBO_PRINT